

DOMEN OLDI-SOTDI SHARTNOMASI

SOTUVCHI

F.I.SH: _____

Pasport / ID: _____

Manzil: _____

Telefon: _____

Email: _____

Vakil: _____

XARIDOR

Tashkilot: **PDP EcoSystem MCHJ**

STIR: _____

Pasport / ID: _____

Manzil: _____

Telefon: _____

Email: _____

Vakil: _____

1.SHARTNOMA PREDMENTI

1.1. Mazkur shartnoma asosida, Sotuvchi Muhammadamin Pulatov (keyingi o'rinlarda "Sotuvchi" deb yuritiladi) o'ziga tegishli bo'lgan pdpecosystem.uz domen nomini, shartnoma shartlariga asosan, Xaridor – "PDP EcoSystem" MCHJ (keyingi o'rinlarda "Xaridor" deb yuritiladi)ga sotadi yoki hamkorlik asosida foydalanish huquqini beradi.

2.DOMEN HUQUQLARI VA FOYDALANISH SHARTLARI

- 2.1. Sotuvchi mazkur domenning egasi ekanligini tasdiqlaydi va ushbu huquqni Xaridorga o'tkazishni o'z zimmasiga oladi.
- 2.2. Xaridor domenni faqat o'zining qonuniy faoliyati doirasida ishlatishi shart.
- 2.3. Domen ustidan barcha mulkiy va foydalanish huquqlari Xaridorga o'tadi.
- 2.4. Domenni uchinchi shaxslarga sotish, ijaraga berish, yoki topshirish faqat Sotuvchining yozma roziligi bilan amalga oshiriladi. Aks holda, shartnoma avtomatik ravishda bekor qilinadi.

3.TO'LOV SHARTLARI

- 3.1. Xaridor quyidagi variantlardan birini tanlab to'lovni amalga oshiradi:
- ☐ Variant 1: To'liq sotib olish – \$300,000 miqdorida bir martalik to'lov.
 - ☐ Variant 2: Qisman to'lov + ulush – \$100,000 boshlang'ich to'lov + 2 yil davomida aylanmadan 1% ulush.
 - ☐ Variant 3: Hamkorlik asosida ulush – sof foydadan 1% ulush to'lash.
- 3.2. To'lov muddati: Xaridor tanlangan variant bo'yicha belgilangan muddat ichida to'lovni amalga oshirishi shart.
- 3.3. To'lov kechiktirilishi: Agar Xaridor belgilangan muddatda to'lovni amalga oshirmasa:
- 30 kundan ortiq kechikish holatida domen huquqi avtomatik ravishda sotuvchiga qaytariladi.
 - To'langan har qanday mablag' qaytarilmaydi.
- 3.4. Domen huquqi va egalik o'tkazilishi: Domen huquqi va egalik to'liq to'langanidan so'ng, Xaridorning domen ustidan barcha huquqlari, shuningdek domenning sotish yoki boshqa maqsadlarda foydalanish huquqi 7 (yetti) ish kuni ichida Sotuvchi tomonidan Xaridorga o'tkaziladi.

4.DOMEN HUQUQLARINI QAYTARISH SHARTLARI

- 4.1. Xaridor tomonidan shartnoma shartlari buzilgan yoki to'lovlar o'z vaqtida bajarilmagan taqdirda, Sotuvchi domen huquqini bir tomonlama tartibda qaytarib olish huquqiga ega.
- 4.2. Xaridor domenni uchinchi shaxslarga berishga urinsa, bu holat shartnoma buzilishi hisoblanadi va domen egaligi avtomatik tarzda Sotuvchiga qaytariladi.

5.TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 5.1. Sotuvchi:
 - Domen nomiga egalik huquqi qonuniy asosda o'zida mavjudligini kafolatlaydi.
 - Tanlangan to'lov varianti bo'yicha mablag'ni to'liq qabul qilgach, domenni Xaridorga topshiradi.
 - Domen huquqining boshqa shaxslarga qarzdorlik yoki garov sifatida berilmaganini kafolatlaydi.
- 5.2. Xaridor:
 - Tanlangan to'lov variantini to'liq va o'z vaqtida amalga oshiradi.
 - Domenni faqat PDP EcoSystem doirasida qonuniy faoliyatda ishlatadi.
 - Shartnomaga zid harakatlar qilmaydi, aks holda barcha huquqlar bekor qilinadi.

Sana: ____/____/____

6.SHARTNOMA BEKOR QILINISHI

6.1. Shartnoma quyidagi holatlarda bekor qilinadi:

- Xaridor shartnomadagi majburiyatlarni bajarmasa.
- Domen noqonuniy yoki kelishuvdan tashqari maqsadlarda ishlatilsa.
- Tomonlardan birining roziligi bilan yozma ravishda.

6.2. Bekor qilinadigan holatda:

- Domen huquqi to'liq Sotuvchiga qaytariladi.
- To'langan mablag'lar hech qanday holatda qaytarilmaydi.

7.NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

7.1. Tomonlar o'rtasida yuzaga keladigan nizolar avval muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

7.2. Agar muzokaralar samara bermasa, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sud orqali hal qilinadi.

8.SHARTNOMANING YURIDIK KUCHI

8.1. Ushbu shartnoma ikki tomon tomonidan imzolangan paytdan boshlab yuridik kuchga ega.

8.2. Har qanday o'zgarish faqat yozma kelishuv asosida amalga oshiriladi.

8.3. Shartnoma 2 (ikki) nusxada tuzilgan, har ikki nusxasi teng yuridik kuchga ega.

Imzo: _____

Sotuvchi: Muhammadamin Pulatov

Imzo: _____

Xaridor: PDP EcoSystem MCHJ